



## FARG'ONA VILOYATI FARG'ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 28-fevral

30-11-163-F/25

Farg'ona tumani hokimligi

**Sh.Jo'rayevni  
xizmat safariga  
yuborish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi "Kambag'allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-347-sonli qarorining 8-bandida belgilangan vazifalarni sifatli amalga oshirish maqsadida hamda Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunning 6,25-moddalari va O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 51-XS-sonli buyrug'iga asosan

### **QAROR QILADI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi PQ-347-sonli qarorining 8-bandiga muvofiq, yuqori natijalarga erishib kelayotgan, ijobiy tajribaga ega 50 nafar hokim yordamchisidan iborat "Loyiha menejerlari" guruhi tashkil etilganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu "Loyiha menejerlari" guruhi a'zosi Farg'ona tumani Dilkusho mahalla fuqarolar yig'inida tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchisi **Jo'rayev Shavkatjon Shoirovich** 20-fevral kunidan e'tiboran olti oy muddatga belgilangan tartib asosida, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining 51-XS-sonli buyrug'iga asosan Samarqand viloyati Nurobod tumani Sahoba va O'rtaoz mahalla fuqarolar yig'iniga ko'maklashish maqsadida xizmat safariga yuborilsin.

Mazkur farmoish ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari **O.Abduraximov** zimmasiga yuklatilsin.

**Fargʻona tuman  
hokimi**



**INOMOV  
XAMIDULLO.TADJIYEVICH**